


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori

X.B. Yunusov
2024-yil “02” 08

AUDIT-2

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70410201	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand-2024

Fan/modul kodi AUD21205		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 5	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	AUDIT-2	60		90	150
2.	<div>I. Fanning mazmuni</div> <p>“Audit-2” iqtisodiy fanlarning muhim yo'nalishlaridan biri sanalanadi va mazkur kursning maqsadi uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, moliyaviy natijalar auditining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish, auditorlik hisoboti va xulosani tuzish jarayonini asosiy mavzularini chuqurlashtirilgan darajada muhokama va tahlil qilishdir. Fanning asosiy jihati –Kurs Buxgalteriya xisobi, audit bo'yicha oraliq kurslarni tugatgan va moliyaviy xisobot taxlilidan ma'lum bilimlarga ega bo'lgan talabalarga mo'ljallangan.</p> <div>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</div> <div>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</div> <div>1-mavzu. Ta'minot jarayoni auditi.</div> <p>Asosiy vositalar harakatiga doir muomalalarni hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish. Nomoddiy aktivlar harakati hisobi to'g'riligini tekshirish. Tovar-moddiy zaxiralar kirimi hisobini tekshirishning xususiyatlari. Tovar-moddiy zahiralarini kirim qilish va ishlab chiqarishga sarflash vaqtida baholashning to'g'riligini tekshirish.</p> <div>2-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi.</div> <p>Ishlab chiqarish jarayoni auditining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari. Xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va tarkibini shakllantirish. Ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazishni rejalashtirish. Ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazish tartibi. Tekshiruv jarayonida olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlari auditi natijalarini umumlashtirish.</p> <div>3-mavzu. Majburiyatlar auditining xususiyatlari.</div>				

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alilikulov tomonidan 70410201-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Audit-2" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotni isloh qilish va mamlakatni modernizatsiyalashtirish hamda jamiyatni demokratlashtirish talablaridan kelib chiqib iqtisodiy fanlar o'quv dasturlarini yangilash davr talabi bo'lib qolmoqda. "Audit-2" fani bo'yicha o'quv dasturi bakalavriatning 70410201-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada ixtisoslik fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 20 soat ma'ruza, 40 soat amaliy dars, 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Audit-2" fani o'quv dasturida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliya-xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan muomalalar va ishlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, pul mablag'lari va moliyaviy investitsiyalar, hisob-kitoblar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zahiralari, ishlab chiqarish jarayonlari va moliyaviy natijalar, buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, xususiy kapital va moliyaviy natijalarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish uslubiyati bayon qilingan. Shu bilan birga auditorlik tekshiruvlarini yakunlash, auditorlik hisoboti va xulosalarini tayyorlash tartibi keltirilgan bo'lib, talabalar da audit va auditorlik faoliyati bo'yicha nazariy bilimlar chuqurlashtirish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazar dan olganda, "Audit-2" fanini chuqur o'rganish taqozo etiladi.

Tayyorlangan o'quv dasturi buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, "Audit-2" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalar da ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 70410201-"Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda o'quv dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika"
kafedrası mudiri, i.f.b.f.d., dotsent

Mardonov M.Sh.

Majburiyatlar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashish muomalalari auditi. Xaridor va buyurtmachilar bo'yicha majburiyatlar auditining xususiyatlari. Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish. Byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditi. Bank kreditlari bo'yicha majburiyatlar auditi. Baholangan va shartli majburiyatlar auditining xususiyatlari.

4-mavzu. Xususiy kapital auditi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlari asosida xususiy kapitalni shakllantirish, xususiy kapital auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. Ustav kapitali auditining xususiyatlari. Ta'sis hujjatlarini tekshirish tartibi. Qo'shilgan va rezerv kapitali auditini o'tkazish tartibi. Taqsimlanmagan foydaning shakllanishi va taqsimlanishining auditi. Xususiy kapital auditi natijalarini hujjatlashtirish va baholash tartibi.

5-mavzu. Moliyaviy natijalar auditi.

Moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalar. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotilishi va undan ko'rilgan moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari. Davr xarajatlari auditi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish tartibi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar auditi. Yakuniy moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari.

6-mavzu. Auditning hisoboti va maxsus standartlari.

Moliyaviy hisobot tarkibidagi boshqa ma'lumot. Moliyaviy hisobotdagi boshqa axborotlar vazifalari. Auditorlik xulosasi imzolangan sanadan keyin, biroq moliyaviy hisobot e'lon qilinadigan sanaga qadar yuz bergan hodisalar.

Moliyaviy hisobotni kompilyatsiyalash. Istiqbolli moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvi.

7-mavzu. Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish.

Auditorlik xulosasi va hisobotini rasmiylashtirilishi. Auditorlik hisobotining tuzilishini ko'rinishi. Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik. Auditorlik xulosasining tuzilishi. Auditorlik xulosalarining turlari.

8-mavzu. O'zbekiston respublikasi audit tizimini xalqaro miqyosda integratsiyalash masalalari.

Auditorlik faoliyati milliy standartlarining turlari. Xalqaro auditorlik standartlarini O'zbekistonda qo'llash muammolari. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining rivojlanishining bosqichlari.

9-mavzu. Auditorlik dalillar va ularni olish usullari.

Auditorlik dalillari ishonchligini baholashning umumiy qoidalari. Auditni rejalashtirish bosqichlari. Auditorlik isbotlash tushunchasi. Audit davomida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash.

10-mavzu. Auditning umumiy standartlari.

Moliyaviy hisobot auditining maqsadi. Auditning mijoz oldidagi majburiyati. Tekshirish o'tkazishda shartnoma. Biznesni bilish. Auditning ishchi hujjatlarini tuzish. Auditorlik tekshiruvda aldash va xatoni aniqlash.

III. Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan

III. I. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari
2. Auditorlik faoliyatini rivojlanish tarixi
3. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari
4. Auditorlik tekshiruvining turlari
5. Auditorlik tekshiruvining xillari
6. Auditorlik tekshiruvining shakllari
7. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar
8. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi
9. Auditda muhimlik
10. Auditorlik riski
11. Auditni rejalashtirish
12. Auditorlik tekshiruvlari vaqtida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarini baholash
13. Auditorlik dalillari
14. Ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish
15. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi
16. Auditorlik hisoboti tuzish tartibi
17. Auditorlik xulosasi
18. Asosiy vositalar auditi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida professor, a.b. iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alilikulov tomonidan 60410100-"Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)" ta'lim yo'nalishi talabari uchun "Audit-2" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Ma'lumki, so'ngi yillarda auditorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, auditorlik faoliyatini munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2021 yil 25 fevralda yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish, auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish, auditorlik xulosalari soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olinishini ta'minlash maqsadida boshqa bir qator ma'voriy hujjatlar qabul qilindi.

"Audit-2" fani bo'yicha o'quv dasturi magistraturaning 70410201-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, shu fanni o'zlashtirish uchun jami 150 soat, shundan, 20 soat ma'ruza, 40 soat amaliy dars, 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Audit-2" fani dasturi 70410201-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja asosida tuzilgan. Ushbu tayyorlangan dastur "Audit" fanining nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari hamda masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy ilmiy va amaliy texnologiyalariga asoslanadi.

"Audit-2" fani bo'yicha fan dasturida keltirilgan mavzular talabalar o'xshash yurituvchi sub'yektlarda ma'voriy-huquqiy hujjatlar asosida audit va auditorlik faoliyatini tashkil etish, auditning xalqaro standartlari asosida xo'jalik faoliyati va moliyaviy hisobotlarni tekshirish bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilishda yordam berib, shu orqali auditorlik faoliyati bo'yicha professional xizmatlarni ko'rsatish uchun zamin yaratadi.

"Audit-2" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturi talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, mazkur o'quv dasturi qo'yilgan talablarga mo'ljol holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70410201-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasining
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.N. Toshnazarov



korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi sayti.

Fan/modul uchun mas'ullar:

A.I.Alikulov – SamDVMCHBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası
professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Sh.X.Yuldashev – SamDVMChBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"
assistenti

19. Moliyaviy ijara auditi.
20. Nomoddiy aktivlar auditi

VI. "Auditn-2" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Hajmi (soatda)
1.	Audit fanining predmeti, obekti va metodi	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2024 Mart	6
2.	Audit va uning modellari.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Mart	6
3.	Auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari, ular-ning rivojlanish tarixi.	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash	2023 Mart	6
4.	AQSH va evropa davlatlarda audit tizimi.	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash	2023 Aprel	6
5.	Osiyo davlatlarida auditorlik faoliyati.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Aprel	6
6.	MDH davlatlarida audit tizimi.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Aprel	6
7.	Xalqaro auditorlik standartlari.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Aprel	6
8.	Auditning axloq kodeksi.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 May	6
9.	Auditning umumiy standartlari.	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash	2023 May	6
10.	Auditning ishchi standartlari.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 May	6
11.	Auditning hisoboti va maxsus standartlari.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 May	6
12.	Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Iyun	6
13.	O'zbekiston respublikasi	Referat yozib,	2023	6

	audit tizimini xalqaro miqyosda integratsiyalash masalalari.	taqdimot tayyorlash	Iyun	
14.	Auditorlik faoliyati milliy standartlarining turlari.	Adabiyotlardan foydalanib, individual topshiriqlarni bajarish tayyorlash	2023 Iyun	6
15.	Milliy auditorlik standartlari va uni ishlab chiqishning tartibi.	Referat yozib, taqdimot tayyorlash	2023 Iyun	6
Jami soat:				90
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi (elektron usulda).				
IV. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi: <ul style="list-style-type: none"> • Ta'minot jarayoni auditi • Ishlab chiqarish jarayoni auditi • Majburiyatlar auditining xususiyatlari • Xususiy kapital auditi • Moliyaviy natijalar auditi 				
V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. 				
VI. Kreditlarni olish uchun talablar: Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.				

Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli bayoni bilan ma'qullangan.

Asosiy adabiyotlar

1. Sh.I.Ilxamov Amaliy audit. Darslik. Toshkent, Iqtisodiyot, 2018-y. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
2. Ilhamov SH.I. Audit. (1-qism) Darslik. Toshkent Davlat iqtisodiyot univversityeti, Iqtisodiyot, 2018. – 295 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
3. Tulaxodjayeva M.M., Ilhamov SH.I. va boshqalar. Audit. (2-qism) Darslik. Toshkent Davlat iqtisodiyot univversityeti, Iqtisodiyot, 2018. – 405 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Tamer Aksoy, Umit Hacıoglu "Auditing Ecosystem and Strategic Accounting in the Digital Era", ISBN 978-3-030-72627-0 ISBN 978-3-030-72628-7 (eBook), <https://doi.org/10.1007/978-3-030-72628-7>, Istanbul, Turkey, 2021. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
 2. Xodjayeva M.X. Audit nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022y.-242 b. (Ushbu darslik universitet ARMda bosma holda va PDF variantda mavjud).
 3. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avlokulov A., Masharipov O., Avazov I. Audit. Elektron darslik. – T.: TMI. 2021 y.
 4. Investitsiyalar auditi. M.X. Xodjayeva, A.N.Maxmudov va boshqalar. O'quv qo'llanma. – "LESSON PRESS" . – T.: – 2022. – 209 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)
 5. Karimov A.A., Muqumov Z.A., Xodjaeva M.X, Avloqulov A.Z. Xalqaro audit: Darslik-. "IQTISOD MOLIIYA". Toshkent. 2020-424b . (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
 6. ACCA Aplied skills. Audit and Assurance. Study text. 2020 y.
- Axborot manbaalari**
1. www.my.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Huqumatining rasmiy sayti.
 2. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
 3. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti.
 4. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
 5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
 6. www.e-univer.tsue.uz – TDIU elektron modul sayti
 7. www.openinfo.uz - O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan